

FARG'ONA VILOYATIDA DEMOGRAFIK HOLAT

(2021-yil yanvar - mart, dastlabki ma'lumot)

Doimiy aholi soni. Farg'ona viloyatining doimiy aholisi soni 2021-yil 1-aprel holatiga ko'ra, 3834,1 ming kishini tashkil etib, yil boshidan 14,1 ming kishiga yoki 0,4 %ga o'sdi.

2021-yil 1-aprel
holatiga ko'ra doimiy
aholi soni 3834,1
ming kishiga yetdi.



Tirik tug'ilganlar
soni 19,7 ming
kishi



2021-yil boshiga
nisbatan 14,1 ming
kishiga yoki 0,4 %
ga o'sgan



O'Iganlar soni 4,4
ming kishi



Shahar aholisi
2159,0 ming kishi



Nikohlar soni 5,9
ming birlik




Qishloq aholi soni
1675,1 ming kishi



Ajrimlar soni 1,0
ming birlik



Hududlar kesimida doimiy aholi sonining taqsimlanishi (2021-yil 1-aprel holatiga, ming kishi)




Viloyat hududlari kesimidagi tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, 2021-yil


1-aprel holatiga eng ko'p aholi soni Farg'ona shahrida 294,8 ming kishi (viloyat aholisi sonidagi ulushi (7,7 %) va Quva tumanida 262,1 ming kishini (6,8 %), aksincha eng kam aholi soni Quvasoy shahrida 95,4 ming kishi (2,5 %) va So'x tumanida 79,5 ming kishini (2,1 %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida aholining eng yuqori o'sish sur'ati 2020-yilning mos davriga nisbatan Qo'shtepa 2,3 %, Bag'dod va So'x, Dang'ara tumanlarida 2,1 %ni, aksincha eng kam o'sish sur'ati, Marg'ilon shahar va Beshariq tumanida 1,5 %ni, Qo'qon shahrida esa 1,3 %ni tashkil etdi.


Shahar qishloq aholisining jami aholiga nisbatan ulushi, %da




Hududlar kesimida shahar va qishloq aholisining taqsimlanishi
(2021-yil 1-aprel holatiga, %da)



Erkaklar va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi, %da



Hududlar kesimida erkak va ayollarning jami aholiga nisbatan ulushi
(2021-yil 1-aprel holatiga, %da)






FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Tug'ilish. 2021- yilning yanvar - mart oylarida 19,7 mingta bola tug'ilganligi qayd etilgan bo'lib (faqat tirik tug'ilganlar inobatga olingan), mos ravishda 1000 aholiga nisbatan tug'ilish koeffitsiyenti 20,9 promilleni tashkil etdi hamda 2020 - yilning mos davriga nisbatan 0,8 promillega oshganligi kuzatildi (2020 - yilning yanvar- mart oylarida 20,1 promille bo'lgan).


Hududlar kesimida tug'ilish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar- mart 1000 aholiga nisbatan, promille)




Tug'ilish koeffitsiyenti

Ma'lumot uchun: tirik tug'ilganlik mezonlaridan (nafas, yurak urishi, kindik pulsatsiyasi, muskullarning beixtiyoriy qisqarishi) biri mavjud bo'lsa ham bola tirik tug'ilgan hisoblanadi. Bunda onaning homiladorlik muddati 22 hafta va undan ortiq, bolaning bo'yи 25 sm va undan ortiq, vazni 500 gramm va undan ortiq bo'lishi lozim.

Farg'ona viloyati bo'yicha tirk tug'ilganlar soni (2021- yil yanvar- mart oylari bo'yicha, ming kishi)



Farg'ona viloyati bo'yicha tirk tug'ilganlar soni
(yanvar- mart)
Yillar



Ming kishi

Vafot etganlar. 2021- yilning yanvar-mart oylarida 4,4 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan o'lim koeffitsiyenti 4,6 promilleni tashkil etdi. 2020- yilning mos davriga nisbatan 0,2 promillega kopayganligi (2020 - yilning yanvar-mart oylarida 4,4 promille bo'lgan) kuzatildi.

O'lim koeffitsiyentining sezilarli darajadagi ko'payishi So'x tumanida (2,7 promilledan 4,1 promillega), Uchko'prik tuman (3,6 promilledan 4,5 promillega), va Farg'ona tumanlarida (4,0 promilledan 4,8 promillega) o'sgan.


Shahar va tumanlar bo'yicha o'lganlar soni (yanvar-mart, kishi)

	2020 y.	2021 y.	O'sish sur'ati
Farg'ona viloyati	4108	4369	106,4
Farg'ona sh.	406	426	104,9
Qo'qon sh.	315	361	114,6
Quvasoy sh.	95	95	100,0
Marg'ilon sh.	287	297	103,5
Oltiariq	227	237	104,4
Qo'shtepa	202	183	90,6
Bog'dod	220	237	107,7
Buvayda	216	235	108,8
Beshariq	271	237	87,5
Quva	258	275	106,6
Uchko'prik	202	257	127,2
Rishton	193	216	111,9
So'x	52	81	155,8
Toshloq	220	212	96,4
O'zbekiston	247	281	113,8
Farg'ona	209	256	122,5
Dang'ara	209	229	109,6
Furqat	164	151	92,1
Yozyovon	115	103	89,6

2021 yilning yanvar-mart oylarida qayd etilgan vafot etganlarning 62,5 foizi qon aylanish tizimi kasalliklaridan, 5,3 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 8,5 foizi o'simtalardan, 5,0 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 5,7 foizi ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklaridan, 1,1 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan hamda 11,9 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.

Ro'yxatga olingan 1 yoshgacha vafot etgan bolalar soni 129 nafarni tashkil etib, ularning 45,7 foizi perinatal davrda yuzaga kelgan holatlardan, 21,7 foizi nafas olish a'zolari kasalliklaridan, 17,8 foizi tug'ma anomaliyalardan, 4,7 foizi baxtsiz hodisa, zaharlanish va jarohatlanishlardan, 4,7 foizi yuqumli va parazitar kasalliklardan va 3,1 foizi boshqa kasalliklardan vafot etgan.


Asosiy o'lim sabablari bo'yicha vafot etganlarning taqsimlanishi



Tabiiy o'sish. 2021 yilning yanvar-mart oylarida aholining tabiiy o'sishi 15,3 ming kishini tashkil etib, 2020 yilning mos davriga nisbatan 0,6 ming kishiga (2020 yilning yanvar-mart oylarida 14,7 ming kishi bo'lgan) o'sgan.




Farg'ona viloyati bo'yicha vafot etganlar soni (ming kishi) (yanvar-mart) Yillar




Nikoh. 2021- yilning yanvar-mart oylarida FHDYO organlari tomonidan 5,9 ming nikoh qayd etildi, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikoh tuzish koeffitsiyenti 6,3 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohlar soni to'g'risida ma'lumot (yanvar- mart, ming)




Hududlar kesimida tuzilgan nikoh koeffitsiyenti (2021- yil yanvar-mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)




Nikohdan ajralishlar. 2021-yilning yanvar-mart oylarida 1,0 mingta nikohdan ajralishlar qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatan nikohdan ajralish koeffitsiyenti 1,1 promilleni tashkil etdi.

Farg'ona viloyati bo'yicha nikohdan ajrashganlar soni to'g'risida ma'lumot




(yanvar- mart, ming)

Hududlар kesimida nikohdan ajralish koeffitsiyenti (2021- yil yanvar- mart holatiga, 1000 aholiga nisbatan, promille)



**Aholi migratsiyasi
(2021 yil yanvar-mart, kishi)**



Migratsiya. 2021-yil yanvar-mart oylarida viloyat bo'yicha ko'chib kelganlar soni 3112 kishini, ko'chib ketganlar soni esa 4328 kishini tashkil etdi.

Migratsiya saldosи minus 1216 kishi bo'lib, 2020-yilning o'tgan shu davrida minus 697 kishi bo'lган.

2021-yilning yanvar-mart oylarida migratsiya saldosining eng yuqori kamayishi darajasi Marg'ilon shahrida minus 391 kishi va eng yuqori o'sish darajasi Farg'ona shahrida 312 kishi qayt etildi.



**Demografiya va mehnat statistikasi
bo'limi. tel:(373) 249-87-32**